Volume 04, Issue 11, 2026

O‘ZBEK VA INGLIZ KINO DISKURSIDA FRAZEMATIK, PAREMIOLOGIK LINGVOKULTUREMALAR VA KINOKULTUREMALARNING SEMANTIK-KONTEKSTUAL XUSUSIYATLARI

Mamatqulova Marhaboxon Nuriddin qizi

Qo‘qon universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Tezisda o‘zbek va ingliz milliy kinolarida qo‘llangan frazematik va paremiologik lingvokulturemalar hamda kinokulturemalarning semantik va madaniy-kontekstual xususiyatlari chog‘ishtirma asosda tahlil qilinadi. Tadqiqot materialidan 24 ta frazematik (17 tasi o‘zbek, 7 tasi ingliz), 11 ta paremiologik lingvokulturema va 10 ta o‘zbek kinokulturemasi ajratilgan. Ingliz frazemalarining ixcham va nisbatan mavhum obrazliligi, o‘zbek frazemalarining esa ko‘p komponentli, predmetli va milliy realiyalarga boyligi ko‘rsatiladi. Kino dialogida shakllanib, xalq nutqiga ko‘chgan birliklar uchun “kinokulturema” termini taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: *kino diskursi, frazematik lingvokulturema, paremiologik lingvokulturema, kinokulturema, ko‘chma ma’no, milliy realiya, evfemizm, kinoya, madaniy kontekst, chog‘ishtirma tahlil.*

Frazeologik birliklar va maqollar xalqning asrlar davomida to‘plagan hayotiy tajribasi, axloqiy qarashlari va dunyoqarashini obrazli shaklda saqlovchi turg‘un birliklardir. Ularning ma’nosi tarkibidagi so‘zlarning lug‘aviy ma’nosidan bevosita kelib chiqmaydi, balki metaforik, obrazli yoki konnotativ yo‘l bilan hosil bo‘ladi. Shu sababli bir tildagi frazema yoki maqol orqali ifodalangan obraz boshqa til vakili uchun ko‘pincha tushunarsiz bo‘lib qoladi. Kino diskursida bunday birliklar qahramon xarakteri, nutqiy vaziyat va vizual kontekst bilan birga namoyon bo‘lgani uchun ularning madaniy ma’nosi yanada yorqin ochiladi. Bundan tashqari, kino o‘zi ham yangi barqaror birliklarning manbaiga aylanmoqda: ayrim replikalar filmdan xalq nutqiga ko‘chib, mustaqil madaniy birlik sifatida yashay boshlaydi.

Frazeologiyaning lingvokulturologik jihatlari V.N.Teliya, A.V.Kunin, Sh.Rahmatullayev ishlarida, paremiologiya masalalari esa V.Mider va o‘zbek olimlari tadqiqotlarida yoritilgan [12; 4; 8; 7]. V.A.Maslova frazeologizmlar va maqollarni milliy madaniyat va mentalitetning muhim tashuvchilari sifatida baholaydi [6]. Tezisning maqsadi o‘zbek va ingliz milliy kinolaridagi frazematik va paremiologik

lingvokulturemalar hamda kinokulturemalarning semantik va kontekstual xususiyatlarini qiyoslashdan iborat. Material “Mahallada duv-duv gap”, “Suyunchi”, “Four Weddings and a Funeral” va “A Private Function” filmlari dialoglaridan olindi. Komponent, semantik, kontekstual-pragmatik va chog‘ishtirma tahlil usullari qo‘llanildi.

Frazematik lingvokulturemalar

Frazema orqali ifodalangan lingvokulturemani **frazematik lingvokulturema** deb atash maqsadga muvofiq. Tahlil qilingan filmlarda bunday birliklarning 7 tasi ingliz, 17 tasi o‘zbek kino diskursiga mansub. Ingliz kinolarida ular, asosan, sevgi va nikoh konseptiga oid: *pop the question, settle down, love at first sight, true love, with this ring I thee wed, dearly beloved, put in a home*. Masalan, *“…then pop the question and settle down and be happy”* replikasida *pop the question* nikoh taklifining kutilmagan, hayajonli va shaxsiy tashabbusga asoslangan tabiatini, *settle down* esa ta’lim, ish va oila qurish orqali barqaror hayotga o‘tishni ifodalaydi. Bu birliklar ingliz madaniyatida nikohning ikki shaxsning mustaqil tanlovi sifatida qaralishini aks ettiradi. Ularni so‘zma-so‘z tarjima qilish (*savolni portlatmoq, joylashib olmoq*) mantiqsiz ma’no beradi, shu bois *qo‘lini so‘ramoq, oila qurib tinch hayot boshlamoq* kabi funksional muqobillar zarur.

O‘zbek kinolarida frazematik lingvokulturemalar miqdor jihatdan ko‘p bo‘lib, oila, nikoh va ijtimoiy maqom bilan bog‘liq: *“Tengqurlarim allaqachon kelin ko‘rishib, yetti qavat ko‘rpachada o‘tirishibdi. Ha Umarjonni boshini ikkita qilaylik deyaverib, jag‘larim tushib ketdi-ku!”* Bu yerda *yetti qavat ko‘rpachada o‘tirmoq* frazemasi milliy realiya – ko‘rpacha asosida farzandini uylantirib, qaynona maqomida izzat-hurmatda yashashni ifodalaydi. *Boshini ikkita qilmoq* frazemasida esa *bosh* sinekdoxasi orqali ikki shaxsni er-xotin juftligiga birlashtirish nazarda tutiladi. *Bo‘yiga yetib qolmoq* frazemasi qizning turmushga tayyorligini o‘zbekona andisha bilan evfemistik ifodalaydi, *boshiga yostiq qilmoq* esa vaqtida uzatilmagan qizga nisbatan qo‘llanib, *yostiq* leksemasining nikoh bilan bog‘liq madaniy kodini faollashtiradi (qiyos: *bir yostiqqa bosh qo‘ymoq*).

Baholash va kinoya ifodalovchi frazemalar ham faol: *tepsa tebranmas* loqayd, befarq shaxsni, *boshida yong‘oq chaqib, maymundek o‘ynatmoq* esa boshqani to‘liq bo‘ysundirishni bildiradi. *Boshidan suv o‘girib ichmoq* birligida poklik ramzi bo‘lgan suv obrazi orqali insonni nihoyatda e’zozlash, *boshini aylantirmoq* esa kimnidir o‘z ta’siriga olish ifodalanadi. Kino kontekstida bu ikki frazema bir xil obraz – kelinga nisbatan qo‘llanib, “ideal kelin” va “o‘g‘ilni izmiga solgan kelin” qarama-qarshiligini yaratadi.

Qiyos shuni ko‘rsatdiki, ikki tildagi frazemalarda semantik yaxlitlik, ko‘chma ma’no, turg‘unlik va pragmatik baholash umumiy xususiyat hisoblanadi. Farq esa struktur murakkablik, obrazlilik darajasi, metaforik asos, milliy realiyalarning ishtiroki, gender stereotiplari va marosimiy mazmunda namoyon bo‘ladi: ingliz frazemalari ixcham, ikki-uch komponentli va nisbatan mavhum obrazlarga tayansa, o‘zbek frazemalari ko‘p komponentli, predmetli (*ko‘rpacha, yostiq, yong‘oq, suv*) va tasviriydir.

Paremiologik lingvokulturemalar

Maqol va matallar asosida shakllangan, xalqning qadriyatlari va dunyoqarashini ifodalovchi birliklarni **paremiologik lingvokulturema** deb ta’riflash mumkin. Filmlarda jami 11 ta shunday birlik qayd etildi. Ingliz kinolarida *If I speak with the tongues of men and of angels, but have not love…* (Bibliyadan olingan, nikoh va dafn marosimlarida o‘qiladi), *True love is a very rare and splendid thing*, *Like does marry like*, *Fair shares for all* kabi birliklar muhabbat, nikoh, diniy-axloqiy qarash va ijtimoiy tenglikni ifodalaydi. *Fair shares for all* urushdan keyingi oziq-ovqat tanqisligi kontekstida qo‘llanib, Britaniya jamiyatidagi adolatli taqsimot g‘oyasi va jamoaviy tasallini aks ettiradi. *Like does marry like* maqoliga o‘zbek tilida *Teng tengi bilan, tezak qopi bilan* maqoli funksional jihatdan yaqin keladi.

O‘zbek kinolaridagi paremiyalar esa oila, farzand, kelin-qaynona munosabati, ota-ona mehri va jamoatchilik tajribasini ifodalaydi: *Yaxshi kelin tushsa berdi Xudo, yomon kelin tushsa urdi Xudo; Onaning ko‘ngli bolada, bolaning ko‘ngli dalada; Qo‘ng‘iz bolasini oppog‘im der, tipratikon bolasini yumshog‘im der; Kelinni kelganda ko‘r, sepini yoyganda ko‘r; Ot aylanib qozig‘ini topadi*. Bu paremiyalarda kelin obrazi markaziy o‘rin tutishi o‘zbek madaniyatida nikohning ikki shaxs emas, ikki oila ishi ekanini ko‘rsatadi.

Kinokulturemalar

Tadqiqotda kino dialogida shakllanib, keyinchalik xalq nutqiga ko‘chgan birliklar uchun **kinokulturema** termini taklif etildi. Kinokulturema muayyan kino qahramoni nutqida yuzaga kelib, kino kontekstidan tashqarida ham qo‘llanadigan, tomoshabin tomonidan izohsiz anglanadigan va madaniy-pragmatik ma’no ifodalovchi barqaror birlikdir. O‘zbek kino materialida 10 ta kinokulturema aniqlandi, jumladan: *Majlis bahona-yu, diydor g‘animat; Erkak kishi xotin kishining yaxshi-yomonligini qayerdan biladi?; Ana surprizu, mana surpriz, ana kir yuvadigan mashina-yu, mana televizor; Bu ish endi mahallada duv-duv gap bo‘ladi; To‘y to‘yday bo‘lsin, mahallada duv-duv gap bo‘lsin; Suyunchi, oyim qiz tug‘dilar!*

Masalan, *majlis bahona-yu, diydor g‘animat* birligi Oyposhshaning o‘g‘liga qarata aytgan kinoyali javobida shakllangan va hozir kimdir asl maqsadini yashirib, bahona keltirayotganda qo‘llanadi. *Bu ish endi mahallada duv-duv gap bo‘ladi* kinokulturemasi esa mahalla institutining ijtimoiy nazorat va jamoatchilik fikri markazi sifatidagi o‘rni hamda uyat, andisha tushunchalari bilan bog‘liq. Bunday birliklarning xalq nutqiga ko‘chishi filmlarning uzoq yillar davomida muntazam namoyish etilishi, qahramonlar nutqining xalqona, obrazli va takrorlashga qulayligi bilan izohlanadi. Tanlangan ingliz filmlarida xalq nutqiga ko‘chgan va muayyan filmga barqaror ishora qiluvchi kinokulturema aniqlanmadi; biroq bu ingliz kino madaniyatida bunday birliklar mavjud emasligini emas, balki aynan shu ikki film doirasida ularning ommaviy nutqda barqarorlashmaganini anglatadi.

Yana bir misol – *Erkak kishi xotin kishining yaxshi-yomonligini qayerdan biladi?* birligi. U grammatik jihatdan so‘roq gap bo‘lsa-da, aslida inkor ma’noni ifodalovchi ritorik so‘roqdir: o‘g‘lining o‘zi kelin tanlash niyatiga javoban Oyposhsha erkakning xotin tanlashda mustaqil qaror qabul qila olmasligini kinoyali hukm sifatida aytadi. Bu kinokulturemada o‘zbek oilasida nikoh masalasida ota-ona, ayniqsa onaning fikri hal qiluvchi bo‘lishi aks etadi. Bugungi nutqda u yigitning shoshqaloq tanloviga nisbatan hazil yoki tanbeh sifatida qo‘llanadi. *Ana surprizu, mana surpriz, ana kir yuvadigan mashina-yu, mana televizor* kinokulturemasida esa rus tilidan o‘zlashgan *surpriz* so‘zining xalqona talaffuzi, takror va sovet davri maishiy texnikasi nomlari birlashib, kutilmagan yangilikka istehzoli munosabatni ifodalaydi.

Kinokulturemalarning semantik xususiyati ularning ikki qatlamli ekanida ko‘rinadi: birinchi qatlam – filmdagi aniq nutqiy vaziyat va qahramon xarakteri, ikkinchi qatlam – kundalik nutqda shakllangan umumlashgan kinoyaviy, baholovchi yoki hazil ma’nosi. Shu sababli kinokulturemani to‘liq anglash uchun film kontekstini bilish talab etiladi, bu esa ularni boshqa tilga o‘girishda alohida qiyinchilik tug‘diradi: mazmunan tarjima qilinganda xalqona talaffuz, ritm va hajviy ohang yo‘qolishi mumkin.

Xulosa

O‘zbek va ingliz kino diskursidagi frazematik va paremiologik lingvokulturemalar umumiy semantik xususiyatlarga ega bo‘lsa-da, ularning obrazlilik asosi va madaniy mazmuni farqlanadi: ingliz birliklari muhabbat, shaxsiy tanlov, diniy-axloqiy qadriyat va ijtimoiy tenglikni, o‘zbek birliklari esa oila, kelin-qaynona munosabati, jamoatchilik fikri va andishani ifodalaydi. Kinokulturema tushunchasi media mahsulotlarining tilni boyitishdagi rolini tavsiflash imkonini beradi. Bu birliklarni tarjima qilishda so‘zma-so‘z usul yaroqsiz bo‘lib, funksional muqobil, izohli

va aralash usullar talab etiladi. Natijalar frazeologiya, paremiologiya, lingvokulturologiya va tarjimashunoslik fanlarini o‘qitishda hamda filmlarni subtitrlash va dublyaj qilishda qo‘llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Berdiyorov H., Rasulov R. O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1984.
2. Воробьев В.В. Лингвокультурология (теория и методы). – М.: Изд-во РУДН, 1997.
3. Four Weddings and a Funeral [Film]. Rej. Mike Newell. – Buyuk Britaniya, 1994.
4. Kunin A.V. English Phraseology. – Moscow: Vysshaya shkola, 1970.
5. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
6. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001.
7. Mieder W. Proverbs: A Handbook. – Westport, CT: Greenwood Press, 2004.
8. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978.
9. Mahallada duv-duv gap [Film]. Rej. Shuhrat Abbosov. – O‘zbekfilm, 1960.
10. A Private Function [Film]. Rej. Malcolm Mowbray. – Buyuk Britaniya, 1984.
11. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008. – 320 b.
12. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996.
13. Kozloff S. Overhearing Film Dialogue. – Berkeley: University of California Press, 2000.